(10). Jonassen D.H. (2011). Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments. Routledge. https://www.routledge.com/Learning-to-Solve-Problems-A-Handbook-for-Designing-Problem-Solving-Learning/Jonassen/p/book/9780415871365

(11). Savery J.R. (2006). Overview of Problem-based Learning: Definitions and Distinctions. Interdisciplinary Journal of Problem-based Learning, 1(1), p. 9–20. DOI: https://doi.org/10.7771/1541-5015.1002

(12). Schoenfeld A.H. (1985). Mathematical Problem Solving. Academic Press. Google Books: https://books.google.com/books/about/Mathematical_Problem_Solving.html?id=X6yiAAAAIAAJ

(13). Bruner J.S. (1960). The Process of Education. Harvard University Press.

Nagmetova Nursulu Muratbaevna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: nursulunagmetova218@gmail.com)

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA FAMILISTIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida familistik madaniyatni integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, familistik madaniyat shaxsning oilaviy qadriyatlar, mas'uliyat va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan ongli munosabatini ifodalovchi muhim pedagogik kasbiy sifat komponenti sifatida asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *oila, oila instituti, familistik madaniyat, integrativ yondashuv, oilaviy qadriyatlar, oila va maktab hamkorligi, ijtimoiy-axloqiy rivojlanish.*

Нагметова Нурсулу Муратбаевна (Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза, доцент кафедры начального образования, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам: e-mail: nursulunagmetova218@gmail.com)

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ФАМИЛИСТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В данной статье проанализированы педагогико-психологические возможности развития фамилистической культуры у будущих учителей начальных классов на основе интегративного подхода. Также, фамилистическая культура обоснована как важный компонент педагогического профессионального качества, выражающий осознанное отношение личности к семейным ценностям, ответственности и социальным отношениям.*

Ключевые слова: *семья, институт семьи, фамилистическая культура, интегративный подход, семейные ценности, сотрудничество семьи и школы, социально-нравственное развитие.*

Nagmetova Nursulu Muratbaevna (Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute Associate Professor of the Department of Primary EducationDoctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences: e-mail: nursulunagmetova218@gmail.com)

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING FAMILISTIC CULTURE IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Annotation. *This article analyzes the pedagogical and psychological possibilities of developing familial culture in future primary school teachers based on an integrative approach. Also, the family culture is substantiated as an important component of pedagogical professional quality, expressing a conscious attitude of the individual towards family values, responsibility, and social relations.*

Key words: *family, family institution, familial culture, integrative approach, family values, family and school cooperation, social and moral development.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi va taraqqiyoti har tomonlama yetuk, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxsni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayonda oilaning o'rni va ahamiyati juda katta bo'lib, undagi madaniyat, o'zaro munosabatlar va qadriyatlar jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu haqida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev, "...bugungi tez o'zgarayotgan, murakkab davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o'rganmasdan turib ijtimoiy hayotdagi ko'plab murakkab savollarga javob topish qiyin. Shu bois oila institutini mustahkamlash va oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lishi kerak", deb ta'kidlaydi [1]. Ushbu fikrlar oilaning nafaqat ijtimoiy, balki pedagogik ahamiyatini ham yaqqol ifodalaydi. Ayniqsa, ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan pedagog kadrlarning, xususan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi-

larining familistik madaniyati yuqori darajada shakllangan bo‘lishi o‘quvchilarda ijtimoiy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarda oilaviy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarash, mas’uliyat va ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifalarni samarali amalga oshirishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, bunda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv pedagogik va psixologik bilimlar, nazariya va amaliy tajribalar, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali ta’lim mazmunini boyitadi. Aynan ushbu yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirish, ularning kasbiy tayyorgaligini ijtimoiy-axloqiy jihatdan takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Familistik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi muammosi ko‘pchilik faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar va pedagoglarning asarlarida o‘rganilgan bo‘lib, bu izlanishlar uning fanlararo xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Ilmiy tadqiqotlarda oila madaniy qadriyatlar va xulq-atvor me’yorlarini uzatuvchi fundamental ijtimoiy institut, shuningdek, shaxsning ijtimoiylashuvida hal qiluvchi muhit sifatida tahlil qilinadi. Jumladan, A.Antonov [2], V.Borisov [5], I. Egamberdiyeva [7], Y.Volkov [9] kabi olimlar oilaning ijtimoiy mohiyati va uning hayotiy faoliyatiga doir, T.Afanaseva [3], A.Bodalev [4]lar oilada bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni, oila pedagogikasi va oilaning psixologik xususiyatlari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Pedagogika sohasida ham oilaviy ta’lim va ta’lim muassasasi bilan oilaning o‘zaro ta’siri masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Darhaqiqat, boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikning muvofiqlashtirilishi, shuningdek, o‘qituvchining ota-onalar bilan birgalikda ishlashga tayyorligi bilan belgilanadi.

MDH mamlakatlari olimlarining [6,8] asarlarida “oila madaniyati” tushunchasi shaxsning oila va oilaviy rollarga nisbatan mas’uliyatli ishtirokini belgilaydigan qadriyatli munosabatlari va bilimlari to‘plami sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini aniqlash va asoslashga qaratilgan. Integrativ yondashuv ta’lim jarayonida shaxs rivojini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy pedagogik konsepsiya bo‘lib, u fanlararo bog‘liqlik, nazariya va amaliyot uyg‘unligi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillariga asoslanadi. Mazkur yondashuv bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirishda pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, etika va milliy-ma’naviy qadriyatlar mazmunini bir butun tizim sifatida qo‘llash imkonini beradi.

Tadqiqotimiz davomida nazariy metodlar doirasida pedagogik, psixologik va falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar orqali familistik madaniyat, integrativ yondashuv hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash masalalarining nazariy asoslari o‘rganildi. Talabalarda familistik madaniyatning shakllanganlik darajasini aniqlash, ularning oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatlarini, ijtimoiy mas’uliyati va kasbiy yo‘nalganligini baholash maqsadida pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so‘rovnomalari, testlar hamda diagnostik metodikalardan foydalanildi. Shuningdek, pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan ta’limni tashkil etish mazmuni va metodlarining samaradorligi tekshirildi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarni qayta ishlash va tahlil qilishda sifat va miqdoriy tahlil metodlari qo‘llanildi. Statistik tahlil vositalari yordamida tajriba-sinov ishlarining samaradorligi aniqlanib, xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlili kasbiy tayyorgarlikning qadriyatli, kognitiv, faoliyatli komponentlari birligini nazarda tutuvchi integrativ yondashuv asosida amalga oshirildi. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarda oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik mohiyatini chuqur anglash, tarbiyaviy faoliyatda kompleks yondashuvni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirish quyidagi pedagogik-psixologik imkoniyatlar orqali amalga oshiriladi:

– o‘quv fanlari mazmuniga oilaviy tarbiya, ota-ona va farzand munosabatlari, milliy oilaviy qadriyatlar mavzularini integratsiya qilish;

– tarbiyaviy mashg‘ulotlarda real oilaviy vaziyatlarga asoslangan pedagogik keyslarni tahlil qilish;

– pedagogik amaliyot jarayonida oila-maktab hamkorligini tashkil etishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajarish;

– talabalarda empatiya, refleksiya va ijtimoiy mas’uliyat hissini rivojlantirish;

– oilaviy munosabatlarga oid ijobiy ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirish;

– trening mashg‘ulotlari va rolli o‘yinlar orqali oilaviy vaziyatlarni psixologik modellashtirish;

– shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan psixologik mashqlarni qo‘llash.

Mazkur pedagogik imkoniyatlar talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash bilan birga, ularning oilaviy qadriyatlarga nisbatan mas’uliyatli munosabatini shakllantirsa, psixologik nuqtayi nazardan integrativ yondashuv shaxsning ichki ehtiyojlari, motivlari va qadriyatlar tizimiga ta’sir etish orqali familistik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarida familistik madaniyat shakllanganligining dastlabki darajasini aniqlash, shuningdek, uning rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar samaradorligini baholashga qaratildi.

Tadqiqotning ta’kidlovchi bosqichida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aksariyatida familistik madaniyatning mohiyati va uning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati haqida aniq tasavvurlar mavjud emasligi aniqlandi. Oilaga nisbatan qadriyatli munosabat umuman olganda ijobiy xarakterga ega, biroq oilaviy qadriyatlarning pedagogik amaliyot va o‘qituvchining tarbiyaviy funksiyasi bilan bog‘liqligi yetarlicha anglanmagan. Kognitiv komponent oila psixologiyasi, maktab va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar pedagogikasi sohasidagi bilimlarning cheklanganligi bilan tavsiflanadi, bu esa ushbu bilimlarni haqiqiy kasbiy vaziyatlarda qo‘llashni qiyinlashtiradi.

Familitik madaniyatning faoliyatli komponenti, asosan, reproduktiv harakatlar darajasida namoyon bo‘lib, talabalarda yaqqol tashabbus va oila bilan o‘zaro munosabatlarni ongli ravishda loyihalashtirish ko‘nikmasi yetarlicha rivojlanmaganligi aniqlandi.

Tadqiqotning shakllantiruvchi bosqichida integrativ yondashuvga asoslangan pedagogik ta’sirlar tizimi amalga oshirildi. U psixologik-pedagogik fanlar mazmuniga familistik muammolarni singdirish, o‘qitishning interfaol metodlaridan foydalanish, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining oilalari bilan o‘zaro munosabatlarga qaratilgan pedagogik amaliyotni tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Talabalarning refleksiv faoliyati va ularning oilaga bo‘lgan o‘z qadriyatli munosabatini anglab yetishiga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu bosqichda amaliy ishlarning asosiy maqsadi pedagogik va psixologik omillarni uyg‘unlashtirgan holda talabalarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabat, tarbiyaviy mas’uliyat va kasbiy kompetensiyani shakllantirishdan iborat deb belgilab olindi.

Amaliy ishlar jarayonida “Pedagogika”, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi”, “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya” fanlari mazmuniga familistik madaniyat bilan bog‘liq mavzular integratsiya qilindi. Jumladan, “Oilaviy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati”, “oila va maktab hamkorligining psixologik asoslari”, “Milliy oilaviy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari”, “Sog‘lom oila muhitining bola shaxsiga ta’siri”. Amaliy asoslarning samaradorligini ta’minlash maqsadida quyidagi pedagogik metod va texnologiyalardan foydalanildi: *keys-stadi metodi* (real oilaviy va tarbiyaviy vaziyatlarni tahlil qilish orqali muammo yechish ko‘nikmalarini shakllantirish), *rolli o‘yinlar* (“O‘qituvchi-ota-ona-o‘quvchi” munosabatlarini modellashtirish), *loyihaviy faoliyat* (“Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” mavzusida guruh loyihalarini ishlab chiqish), *munozara va davra suhbatlari* (oilaviy qadriyatlar yuzasidan mustaqil fikrlashni rivojlantirish), treninglar (empatiya va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlari). Ushbu metodlar talabalarning faolligini oshirish bilan birga, ularning psixologik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirdi.

Shuningdek, pedagogik amaliyot davomida talabalar boshlang‘ich sinflarda oilaviy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar va tarbiyaviy soatlar o‘tkazishdi. Pedagogik amaliyot jarayonida ota-onalar bilan suhbatlar tashkil etildi, oila va maktab hamkorligiga doir kuzatuvlar olib borildi, tarbiyaviy tadbirlar ssenariylari ishlab chiqildi. Bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchilarda oilaviy tarbiya masalalarida amaliy tajriba hosil bo‘lishiga imkon yaratdi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichi natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirishning ijobiy dinamikasidan dalolat beradi. Oilaviy qadriyatlar va ularning kasbiy ahamiyatini anglash darajasini oshirish, oila psixologiyasi va oilaviy tarbiya pedagogikasi sohasidagi bilimlarni kengaytirish, shuningdek, ta’lim oluvchilarning ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlar ko‘nikmalarini rivojlantirish qayd etildi. Talabalar o‘zlashtirgan bilimlarini pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishda dadilroq qo‘llay boshladilar, maktab va oila hamkorligini tashkil etishda tashabbuskorlik ko‘rsata boshladilar.

Olingan natijalar tahlili integrativ yondashuv bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining familistik madaniyatini yaxlit rivojlantirish uchun qulay pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratadi, degan xulosaga kelish imkonini berdi. Nazariy tayyorgarlik, amaliy faoliyat va kasbiy tajribani refleksiv anglashning birligi zamonaviy boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchining tarbiyaviy funksiyasini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barqaror qadriyatli munosabatlar, kasbiy ahamiyatga ega bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimida integrativ yondashuvdan foydalanishning maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi va uning pedagogika oliy ta’lim muassasasi sharoitida familistik madaniyatni rivojlantirishning samarali vositasi sifatidagi salohiyatini ochib beradi.

Xulosa va takliflar. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirishga doir tadqiqot ishlarimiz jarayonida aniqlanishicha, pedagogik va psixologik omillarning uyg‘unligi bo‘lajak o‘qituvchilarning oilaviy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish, ularning shaxsiy va kasbiy pozitsiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonida nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatni, shuningdek, kasbiy kompetensiyalar bilan familistik madaniyatning tarkibiy qismlarini uzviy bog‘lash imkonini beradi. Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari nafaqat bilimli mutaxassis, balki oilaviy va ijtimoiy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanadi, mas’uliyat, empatiya, ijtimoiy faollik, oila va jamiyat oldidagi burchni anglash kabi muhim shaxsiy sifatlar rivojlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonini maqsadli, tizimli va shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish familistik madaniyatni samarali rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot xulosalari oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ta’lim mazmunini boyitish, o‘quv reja va dasturlarni takomillashtirish hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida familistik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni yanada samarali tashkil etishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 7-martdagi “Xalqaro xotin-qizlar bayrami”ga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. https://president.uz/oz/1545

(2). Антонов А.И. Стратегия фамилистических исследований и политика «семейной приватизации» /А.И.Антонов. “Семья в России”, 1995, № 1, 2.

(3). Афанасьева Т.М. Семья. Учеб. пособие для 9–10 кл. сред. шк., М., “Просвещение”, 1988, 285 с.

(4). Бодалев А.А. О формировании отношений в семье. “Советская педагогика”, 1991, № 8, с. 39–44.

(5). Борисов В.А. Деградация института семьи и пути ее преодоления. “Семья в России”, 1995, № 1–2.

(6). Борлакова Б.М. Формирование у старшеклассников потребности в создании семьи и воспитании детей. Автореф. дис. на соиск. учен. степ, канд. пед.наук, (13.00.01). Карачаево-Черкес. гос. пед. ун-т. Карачаевск, 1999, 22 с.

(7). Egamberdiyeva I.A. Oilaviy diskursda bolalar nutqining milliy-madaniy belgilari. “Молодые ученые”, 2024, № 2(21). 114–117-betlar.

(8). Волжина О.И. Аксиологическая концепция семьи. “Мир образования образование в мире”, 2001, № 4, с.2 9–46.

(9). Волков Ю.Г. Социология. Учебник. Под ред. В.И.Добренькова. М., “Гадарики", 2000, 432 с.

Shukurov Zohid Kuchkarovich (Kattaqo‘rg‘on davlat Pedagogika instituti, Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent; shukurovzokhid@gmail.com),
Turobov To‘lqinbek Sherzod o‘g‘li (Kattaqo‘rg‘on davlat Pedagogika instituti magistranti; turobovtulqin@mail.com)

6–9-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA IJODIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH UCHUN «MDR» DIDAKTIK MODELINING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada 6–9-sinf matematika darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan «Muammo – Divergent izlanish – Refleksiya» (MDR) nomli original didaktik model taqdim etiladi. Model J.Polyaning evristik yondashuvi, J.Guilfordning divergent tafakkur nazariyasi va L.S.Vigotskiyning «Yaqin taraqqiyot zonasi» konsepsiyasi sintezi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, to‘rt ketma-ket bosqichni o‘z ichiga oladi. Modelning samaradorligi Kattaqo‘rg‘on shahridagi 47-umumta’lim maktabida 6–9-sinf o‘quvchilari (jami 124 nafar) ishtirokida o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov davomida isbotlandi: tajriba guruhlarida ijodiy fikrlash ko‘rsatkichlari an’anaviy o‘qitilgan guruh-*